



CANADA



CANADA

ONA TILI FANLARIDAGI NUTQ O'STIRISHDA KITOB MUTOLAASI

Isroilova Nafosat Ulug'bek qizi

*Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli 4-umumiy o'rta ta'lim mактабининг
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar, masofaviy ta'lim asosida o'qitishning afzal tomonlari, ona tili fanini o'qitishda samarali usullar, nutq o'stirish vositalari, dars jarayonini tashkil qilishda kitob mutolaasining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, onlayn, metodlar, ertak, kitob mutolaasi, rivojlanish.

O'ylaring so'zlariningga, so'zlarining fe'lingga, fe'ling taqdiringga nuqs etadi. Go'zal o'yla, go'zal yasha! Jaloliddin Rumiy

Mamalakatimiz tobora rivojlanib va taraqqiy topib borar ekan, bugungi kunda eng so'nggi zamon texnologiyalariga talab va taklif kuchaymoqda. Kundalik turmush tarzimizni internetsiz, texnikasiz tasavvur qilishimiz qiyin bo'lib qolmoqda. Albatta, bu quvonarli hol. Dunyoning narigi tomonida bo'layotgan hodisalar, yangilik va kashfiyotlarni internet orqali 1 daqiqada bilib olish mumkin. Insoniyat butun umri davomida nelarga qodirligini mana shu buyuk kashfiyotlardan ham bilish qiyin emas. Ming yillar ilgari xalqda yaralgan afsona va ertaklar bugun haqiqatga aylanganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda ta'lim sohasida ham juda katta o'zgarish va yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Dars jarayonini samarali tashkil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va yuqori natijalarga erishishda mamlakatimizning chekka hududlarida ham imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, o'tgan ikki yillik davr mobaynida , xalqimiz sinovli kunlarni boshdan o'tkazayotgan bir paytda, pandemiya sababli ta'lim sohasida tubdan burilish yuz berib, masofaviy ta'lim joriy qilindi. Har bir narsaning yomon tomoni bo'lgani kabi, yaxshi taraflari ham bor, albatta. Bu sinovli vaziyat pedagog xodimlarimiz zimmasiga yana bir karra mas'uliyat yukladi. Ularni yanada izlanishga, sinchkovlik bilan ish ko'rishga, har bir o'quvchi bilan individual shug'ullana olishiga zamin yaratdi. Ota-onalar uchun farzandlarining yaxshi bilim olishida birgalikda o'rganishga, ularga ko'proq vaqt ajratishi uchun, muntazam nazorat o'rnatishiga imkoniyat yaratildi. Dars jarayonida internet, mobil telefonidan qanday foydalanish lozimligini, uning foydali tomonlari va afzalliklarini o'quvchilar bilan teng qatorda ularning ota-onalari ham yaxshi bilib olishdi.

Har bir fanni o'qitishda o'ziga yarasha qiyinchiliklar bo'ladi. Maktabda ona tili fanini o'qitishda ham asosiy e'tibor og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratiladi. O'quvchi nutqi ravon bo'lsa, o'z fikrini erkin bayon qila oladi. Matn ustida ishlash, mashqlar bajarish, gap tuzish, rasm asosida gapirtirish, og'zaki suhbat kabi mashg'ulotlar nutq o'stirishda katta ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlarni

muntazam olib borishdan tashqari o'quvchini kitob mutolaasiga undash nutqni o'stirish bilan birga, erkin fikrlash, ravon gapirishga chorlaydi. Kitobning 21 ta foydali xususiyatlari borligi hech birimizga sir emas. Keling yana bir bor esga solamiz: Mutolaa asabni tinchlantiradi, uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi, qalbni yumshatadi, miya faoliyatini yaxshilaydi, tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi, insonni go'zallashtiradi, hayotdagi maqsadini anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, o'qiydigan insonlar hayotda faol bo'lishadi, xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi, so'z boyligini oshiradi, yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi, chet tilini o'rganishni osonlashtiradi, tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, Alsgeymer xastaligiga chalinishning oldini oladi, kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi, ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi, ko'p kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi, jinoyatchilikning oldini oladi, yaxshi hikoyago'yga aylantiradi, yaxshilik qilishga undaydi. Badiiy kitob o'qishga qiziqish o'quvchida o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buning uchun unga nimadir turki bo'ladi. Aksariyat hollarda esa, bolaligidan ertak va hikoyalari eshitib katta bo'lgan va ko'p she'r yod olgan bo'lib chiqadi. O'quvchini kitobxonlikka o'rgatishda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borish zarur. Uyda bolaga qilgan ishi uchun rag'batlantirishda kitob sovg'a qilish, kitob o'qisa qandaydir iltimosini bajarishga undash orqali ham ijobiy natijaga erishish mumkin. O'qituvchi esa darsda mavzuga bog'lagan holda qandaydir kichik bir rivoyat yoki mavzuga misol bo'luvchi dalil o'qib berib, qo'lidagi kitobning judayam foydali va qiziqarli ekanligi haqida aytib ketsa ham, o'quvchida shu kitobni topib o'qib ko'rishga qiziqish uyg'onadi. Va buning natijasida nutq o'sadi, fikr ravon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday davlatning rivojlanib, taraqqiy topishi uchun eng asosiysi, o'sib kelayotgan yosh avlodlarning munosib ta'lim va tarbiya egallashi hisoblanadi. Buning uchun esa barchamiz birgalikda harakat qilmog'imiz va yoshlar kelajagini bardavom bo'lishi uchun hozirdanoq harakat qilmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. / —Xalq so'zil gazetasi, 2017-yil 13-yanvar
2. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. Fan, 1999